



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Einora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
Adjiev Nayrullo Nazrulloevich	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
Amirullayeva Barno Abdulhaqovna	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi	
Talabalarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari.....	135
Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
Djaparova Gulnoza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
Do'stov Davron Zulhaydarovich	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
Ergash Shonazarovich Khasanov	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
Gulbahor Xamidova	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
Halima Shukurova Sunatullayevna	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
Mustafoev Sherali	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
Nasimova Zarina Isomiddin kizi	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
Numonova Dildor Umurzoqovna	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
Qarshiboyev Asliddin	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
Qilichova Marxabo Xudayqulovna	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
Suvanova Kamola Raimqul qizi	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	264
<i>Mamadiyrov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL)	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'liqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV YONDOSHUV

Gulbahor Xamidova

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim metodika kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Unda kognitiv rivojlanishning asosiy nazariyalari, xususan, Jan Piaje va Lev Vigotskiy g'oyalari tahlil qilingan. Shuningdek, xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash hamda muammolarni hal etish kabi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy usullar va pedagogik strategiyalar muhokama qilingan. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va ota-onalar uchun bolalarning kognitiv salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv rivojlanish, intellektual qobiliyat, maktabgacha yosh, Piaje, Vigotskiy, xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash, muammo yechish, pedagogika.

Abstract: This article highlights the importance of the cognitive approach in developing the intellectual abilities of preschool children. It analyzes the main theories of cognitive development, particularly the ideas of Jean Piaget and Lev Vygotsky. The paper also discusses practical methods and pedagogical strategies aimed at enhancing cognitive skills such as memory, attention, logical thinking, and problem-solving. Furthermore, it provides recommendations for preschool educators and parents to help maximize children's cognitive potential.

Key words: cognitive development, intellectual abilities, preschool age, Piaget, Vygotsky, memory, attention, logical thinking, problem-solving, pedagogy.

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость когнитивного подхода в развитии интеллектуальных способностей детей дошкольного возраста. Проанализированы основные теории когнитивного развития, включая идеи Жана Пиаже и Льва Выготского. Также обсуждаются практические методы и педагогические стратегии, направленные на развитие когнитивных навыков, таких как память, внимание, логическое мышление и решение проблем. В статье предлагаются рекомендации для дошкольных образовательных учреждений и родителей, способствующие максимальному раскрытию когнитивного потенциала детей.

Ключевые слова: когнитивное развитие, интеллектуальные способности, дошкольный возраст, Пиаже, Выготский, память, внимание, логическое мышление, решение проблем, педагогика.

KIRISH

Maktabgacha yosh – bolaning shaxsiyati shakllanishida, uning intellektual va kognitiv qobiliyatlari rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolaning miyasi jadal rivojlanadi, yangi bilimlarni o'zlashtirish va atrof-muhitni tushunishga tayyor bo'ladi. Ushbu jarayonda kognitiv yondashuvning ahamiyati beqiyosdir. Kognitiv yondashuv bolaning fikrlash jarayonlari, bilimlarni qanday o'zlashtirishi, qayta ishlashi va ulardan foydalanishiga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy asoslari hamda amaliy tatbiqlari atroflicha o'rganiladi.

Jan Piaje – shveysariyalik psixolog bo'lib, bolalarning intellektual rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida tushuntirgan. Uning fikricha, bolalar faol ravishda bilimlarni quradilar va o'z dunyosi haqidagi tushunchalarini o'zgartiradilar. Piaje kognitiv rivojlanishning to'rt bosqichini ajratgan: sensorimotor bosqich (0-2 yosh) – bola atrofda dunyoni hislar va harakatlar orqali o'rganadi; operatsiyadan oldingi bosqich (2-7 yosh) – simvolik fikrlash rivojlanadi, biroq mantiqiy fikrlash hali to'liq shakllanmagan. Bu davrda bolalar egotsentrizmga moyil bo'ladilar.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha "operatsiyadan oldingi" bosqichda bo'ladilar. Bu bosqichda ularning tasavvuri kuchli bo'ladi, lekin mantiqiy xulosalar chiqarishda qiynalishlari mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayoni o'yinlar, hikoyalar va ko'rgazmali materiallar orqali olib borilishi kerak. Vygotskiy fikricha, bolaning kognitiv rivojlanishi faqat individual jarayon emas, balki u atrof-muhit, odamlar bilan muloqot va madaniy vositalar orqali shakllanadi. Uning nazariyasi bir qancha asosiy tamoyillarga asoslanadi: Vygotskiy insonning yuqori darajadagi aqliy funksiyalari (masalan, mantiqiy fikrlash, abstrakt tushunish, o'z-o'zini tartibga solish) ijtimoiy muhitda paydo bo'lib, keyinchalik shaxs tomonidan internalizatsiya qilinadi, deb hisoblagan. Ya'ni, har qanday kognitiv funktsiya avval odamlar o'rtasida (interpsixologik darajada) paydo bo'ladi, keyin esa bolaning o'z ichida (intrapsixologik darajada) shakllanadi. Masalan, bola kattalar bilan muloqotda tilni o'rganadi, keyin esa bu tilni o'z fikrlarini shakllantirish uchun ishlatadi.

Vygotskiy bolalar bilimlarni passiv qabul qilmasdan, balki ularni faol ravishda quradilar, deb ta'kidlagan. Bu jarayon "ko'proq bilimdon boshqa shaxs" bilan ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali sodir bo'ladi. Bunda bola ko'proq bilim yoki tajribaga ega bo'lgan har qanday shaxs (ota-ona, o'qituvchi, tengdosh, hatto kompyuter dasturi) bilan muloqot qiladi. Vygotskiyga ko'ra, inson aql-zakovati madaniy vositalar yordamida shakllanadi. Bu vositalar ikki turga bo'linadi: Moddiy vositalar: kompyuterlar, kalkulyatorlar, asboblari, yozuvlar; Psixologik vositalar: til, belgilar, ramzlar, diagrammalar, mnemonik usullar. Bu vositalar odamga atrof-muhitni tushunish va u bilan o'zaro munosabatda bo'lishga yordam beradi. Til eng muhim psixologik vosita bo'lib, u orqali bolalar bilimlarni o'zlashtiradilar, fikrlarini ifodalaydilar va muloqot qiladilar. Til, shuningdek, bolalarga o'z fikrlash jarayonlarini tartibga solishga (ichki nutq orqali) imkon beradi.

Vygotskiy nazariyasining eng mashhur tushunchalaridan biri bu Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD)dir. ZPD – bu bolaning hozirgi mustaqil rivojlanish darajasi (ya'ni, u nimalarni o'zi mustaqil bajara oladi) va potensial rivojlanish darajasi (ya'ni, u nimalarni kattalar yordami yoki bilimdon tengdoshlar bilan hamkorlikda bajara oladi) o'rtasidagi farqni bildiradi. O'quv jarayonining ZPD ichida tashkil etilishi eng samarali hisoblanadi. Ya'ni, bola o'zi uchun biroz murakkab, ammo yordam berilganda uddalay oladigan vazifalarni bajaranda maksimal kognitiv o'sishga erishadi. "Scaffolding" (ko'priq qurish yoki yordam berish) tushunchasi esa MKO (ko'proq bilimga ega boshqa shaxs) tomonidan bolaga ZPD doirasidagi vazifalarni bajarishda ko'rsatiladigan va vaqt o'tishi bilan asta-sekin kamaytiriladigan yordamni anglatadi. Bola vazifani mustaqil bajara olgach, bu yordam to'xtatiladi. Vygotskiy ta'kidlaganidek, har bir madaniyat bolalarga dunyoni tushunish va u bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun o'ziga xos vositalar hamda strategiyalar to'plamini taqdim etadi. Shu sababli, turli madaniyatlardagi bolalarning kognitiv rivojlanishi ham farqlanadi. Ba'zi madaniyatlarda bolalar kattalar bilan bevosita muloqot orqali o'rganishsa, boshqalarida mustaqil o'yin va kuzatish orqali tajriba orttirishga urg'u beriladi. Bu amaliyotlar bolalarning kognitiv rivojlanishining turli jihatlariga ta'sir qiladi.

Madaniyatning ta'limga bo'lgan yondashuvi, o'qitish metodlari va o'quv dasturlari bolaning kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Vygotskiyning nazariyasi ta'lim jarayoniga quyidagi yo'nalishlarda katta ta'sir ko'rsatgan: Hamkorlikdagi o'rganish guruh ishlari, juftlikdagi vazifalar va o'zaro yordamni rag'batlantiradi. O'qituvchi faqat ma'lumot uzatuvchi emas, balki "ko'proq bilimdon boshqa shaxs" sifatida bolalarning ZPDda rivojlanishiga yordam beruvchi yo'lbo'shchi sifatida faoliyat yuritadi. Scaffolding texnikasi orqali o'qituvchi bolalarga topshiriqlarni bajarishda bosqichma-bosqich yordam beradi va bola mustaqillashgan sari bu yordamni kamaytirib boradi. O'quv dasturlari hamda materiallar bolalarning madaniy fonini va kundalik tajribalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Umuman olganda, Vygotskiyning nazariyasi bizga bolaning aqliy rivojlanishi nafaqat individual psixik jarayonlar, balki ijtimoiy muloqot va madaniy muhitning murakkab o'zaro ta'siri natijasi ekanini chuqur anglash imkonini beradi. Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) – bu bolaning mustaqil ravishda bajara olmaydigan, lekin kattalar yoki tajribali tengdoshlar yordami bilan uddalay oladigan vazifalar doirasidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ko'mak berish o'qituvchi yoki ota-ona tomonidan bolaga murakkab vazifani bajarishda yordam ko'rsatish jarayonidir. Bola mustaqil o'zlashtirgan sari bu yordam bosqichma-bosqich kamaytiriladi. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bolaning intellektual rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar bilan o'zaro muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois maktabgacha ta'lim jarayonida hamkorlikdagi o'yinlar, guruh ishlari va kattalar tomonidan yo'naltirilgan faoliyatlar bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: Xotira – bolalarning o'rganish va ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyatini belgilaydi. Ushbu davrda qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira shakllanadi. Amaliy tavsiyalar: rasm-xotira o'yinlari, hikoyalarni qayta aytib berish, qo'shiqlar va she'rlarni yodlash, narsalarning joylashuvini eslab qolishga qaratilgan mashg'ulotlar.

Diqqat – bolaning ma'lumotga e'tibor qaratish va uni uzoq vaqt davomida saqlab turish qobiliyatidir. Amaliy tavsiyalar: rasmlardagi farqlarni topish, topishmoqlarni yechish, diqqatni jamlashni talab qiluvchi o'yinlar (masalan, "Kim yo'q?"), qiziqarli topshiriqlarni bajarish. Mantiqiy fikrlash – sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish, guruhlash, tasniflash va umumlashtirish qobiliyatidir. Amaliy tavsiyalar: shakl, rang va o'lchamga qarab saralash o'yinlari, boshqotirmalar, ketma-ketlikni topish o'yinlari, domino, konstruktorlardan foydalanish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarning muammolarni hal qilish qobiliyati ularning mustaqil fikrlash darajasini hamda turli vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish mahoratini ifodalaydi. Amaliy tavsiyalar: bolalarga o'z muammolarini mustaqil hal qilish imkonini berish (masalan, o'yinchoqni qanday tuzatish haqida o'ylash), rolli o'yinlar tashkil etish, turli xil ssenariyalar asosida mashg'ulotlar o'tkazish.

Tasavvur bolaning abstrakt fikrlashini, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini kuchaytiradi. Amaliy tavsiyalar: erkin ijodiy faoliyatlar (rasm chizish, loy ishlash, qumda o'ynash), hikoyalar to'qish, rolli o'yinlarda qatnashish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda uy sharoitida kognitiv yondoshuvni qo'llash uchun quyidagi strategiyalar muhim hisoblanadi: O'yin – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi bo'lib, ular o'yin orqali dunyoni o'rganadilar, ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bunda didaktik, rolli, stol va harakatli o'yinlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta'limda bolalarning kognitiv rivojlanishini standart testlar orqali baholash juda muhim jarayon bo'lib, bu bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash, ta'lim dasturlarini shaxsiylashtirish va rivojlanishdagi mumkin bo'lgan kechikishlarni erta aniqlashga yordam beradi. Ushbu testlar, odatda, psixologlar yoki maxsus tayyorlangan mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi ularning kelajakdagi o'quv faoliyati va hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi. Kognitiv qobiliyatlarga xotira, diqqat, muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash, tilni tushunish va undan foydalanish, shuningdek, perseptiv qobiliyatlar (masalan, shakllarni tanish, fazoviy tasavvur) kiradi. Standart testlar quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

- bolaning o'z yosh guruhidagi tengdoshlariga nisbatan kognitiv rivojlanish darajasini;
- bolaning qaysi kognitiv sohalari yaxshi rivojlanganini va qaysilarida qo'shimcha yordam zarurligini;
- rivojlanishdagi kechikishlar yoki o'rganishdagi qiyinchiliklarni erta aniqlash hamda o'z vaqtida aralashuv choralari ko'rish imkonini;
- bolaning individual ehtiyojlariga mos keladigan o'quv va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini.

2000-yildan keyingi davrda bu testlarning yangilangan versiyalari va ularni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar kengayib borgan.

Bayley chaqaloqlar va yosh bolalar rivojlanish shkalasi (Bayley Scales of Infant and Toddler Development – BSID-III / Bayley-4): Chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalarning (odatda 1 oydan 42 oygacha) kognitiv, til, motor, ijtimoiy-emotsional va adaptiv xulq-atvor rivojlanishini baholaydi. Bu test ayniqsa rivojlanishdagi erta kechikishlarni aniqlashda samarali bo'lib, idrok, xotira, muammo yechish va mantiqiy fikrlash kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Vechsler maktabgacha va boshlang'ich maktab intellekt shkalasi (Wechsler Preschool and Primary Scale of Intelligence – WPPSI-IV): 2 yosh 6 oydan 7 yosh 7 oygacha bo'lgan bolalarning umumiy intellektual qobiliyatini, verbal tushunish, vizual-fazoviy fikrlash, ishchi xotira va ishlov berish tezligi kabi kognitiv sohalaridagi kuchli hamda zaif tomonlarini baholaydi. Test maktabga tayyorlik darajasini, intellektual iqtidor yoki rivojlanishdagi kechikishlarni aniqlashda keng qo'llaniladi va bolaning ma'lumotni qanday qabul qilishi hamda qayta ishlashiga oid noyob tushuncha beradi. Stenford-Bine intellekt shkalasi (Stanford-Binet Intelligence Scales, 5th Edition – SB5): 2 yoshdan kattalargacha bo'lgan shaxslarning intellektual qobiliyatini keng qamrovda baholaydi. Ayniqsa, intellektual jihatdan juda yuqori yoki past bo'lgan bolalarni aniqlashda samarali. Verbal va noverbal mantiq, ishchi xotira, miqdoriy fikrlash va vizual-fazoviy ishlov berishni qamrab oladi. Denver rivojlanish skrining testi (Denver Developmental Screening Test – DDST-II): Tug'ilishdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanish kechikishlarini skrining qilish uchun qo'llaniladi. Bu diagnostik test emas, balki chuqurroq baholash zarurligini aniqlash vositasidir. U shaxsiy-ijtimoiy, nozik motor-adaptiv, til va qo'pol motor ko'nikmalarini baholash orqali kognitiv rivojlanish haqida umumiy tasavvur beradi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning rivojlanishini baholashga katta e'tibor qaratilmoqda. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi doirasida bolalarning kognitiv rivojlanishini kuzatish va baholashga oid usullar belgilangan. Biroq xalqaro standart testlarning O'zbekiston madaniyatiga to'liq moslashtirilishi va milliy me'yorlar asosida standartlashtirilishi hali ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



Ba'zi tadqiqotlar va amaliyotlarda: yuqorida sanab o'tilgan Vechsler testlarining (WPPSI, WISC) ruscha yoki ba'zan o'zbekchaga tarjima qilingan versiyalari, asosan, ilmiy tadqiqotlarda yoki maxsus ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin. Ammo ularning O'zbekiston bolalari uchun to'liq me'yorlashtirilganligi bo'yicha tizimli ma'lumotlar kam; kuzatuvga asoslangan metodikalar: ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning kognitiv rivojlanishi pedagoglar va psixologlar tomonidan muntazam kuzatuvlar, o'yin faoliyati tahlili hamda diagnostik topshiriqlar orqali baholanadi. Bu esa har doim ham to'liq standartlashtirilgan testlarga asoslanmaydi; mahalliy ishlab chiqilgan metodikalar: O'zbekistonlik olimlar va mutaxassislar tomonidan bolalarning yosh xususiyatlari hamda madaniy kontekstni hisobga olgan turli diagnostik metodikalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotda qo'llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda kognitiv rivojlanishni standart testlar orqali baholash bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va uning keyingi ta'lim yo'lini rejalashtirishda bebaho vositadir. Bu testlar yuqori ishonchlilik va validlikka ega bo'lib, ularni professional psixologlar bolaning individual sharoitlari hamda madaniy kontekstini inobatga olgan holda qo'llashlari zarur. O'zbekistonda bu boradagi amaliyotni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondashuv zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Jan Piaje va Lev Vigotskiy nazariyalari bolalarning bilimlarni qanday o'zlashtirishini tushunish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal etish kabi kognitiv ko'nikmalarni maqsadli rivojlantirish bolalarning maktabga tayyorgarligini oshiradi hamda ularning kelajakdagi o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. O'yin orqali o'qitish, faol ishtirokni rag'batlantirish va individual yondashuv kabi pedagogik strategiyalar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi bolalarning kognitiv salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berk, L. E. Child Development. Pearson Education, 2013.
2. Fisher, K. W., & Bidell, T. R. Dynamic Development of Action, Thought, and Emotion. John Wiley & Sons, 2006.
3. Shonkoff, J. P., & Phillips, D. A. (Eds.). From Neurons to Neighborhoods: The Science of Early Childhood Development. National Academies Press, 2000.
4. Santrock, J. W. Children. McGraw-Hill Education, 2019.
5. Woolfolk, A. Educational Psychology. Pearson, 2016.
6. Дети и их развитие: когнитивный подход / Под ред. Н. В. Ефимовой. — Москва: Просвещение, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.